

**G'O'ZA OILALARIDA SELEKSIYASIDA QIMMATLI XO'JALIK BELGI KO'RSATKICHLARINING
O'ZGARUVCHANLIGI VA SHAKLLANISHI**

Barotova Anisa Rzzokovna

Mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat agrar universiteti,

Toshkent anisa.baratova1988@mail.ru

Dunyo miqyosida ekologik muvozanatning global ravishda o'zgarishi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan paxtachilik sohasiga ham salbiy ta'sir etib kelmoqda. Shuning uchun, paxta yetishtiruvchi davlatlarda turli stress omillariga tabiiy bardoshli, hosildor va tola sifati yuqori bo'lgan yangi g'o'za navlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, g'o'za 80 dan oshiq davlatlarda yetishtiriladi. G'o'za yetishtiradigan asosiy davlatlar AQSh, Xitoy, Hindiston, Pokiston, O'zbekiston, Turkiya, Braziliya, Gresiya, Argentina va Misr hisoblanib, ushbu davlatlarda dunyo miqyosidagi paxtaning 85 % yetishtiriladi.

Dunyo paxtachiligida g'o'zaning *G.hirsutum L.* va *G.barbadense L.* yovvoyi va yarim yovvoyi turlarning potentsiali, shuningdek, geografik jihatdan kelib chiqishi bir-biridan uzoq bo'lgan shakl va navlarni hamda turlararo duragaylash uslubidan keng foydalanish orqali ijobiy genlar majmuasiga ega bo'lgan yangi donorlar va manba'lar yaratilmoqda. Xorijda asosan, har xil g'o'za turlarining seleksion ahamiyatini o'rganish hamda ulardan kasalliklarga bardoshli va qimmatli xo'jalik belgilarning ijobiy majmuasiga ega bo'lgan yangi navlarni yaratish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilayotganini ko'rsatdi.

M.Xalikova va boshqalar [1; 292-294-b.] ta'kidlashlaricha, duragaylarda bitta ko'sakdagi paxta vaznini o'rganish, ushbu belgining adabiyotlarda keltirilganidek, ko'pchilik miqdoriy belgilar kabi poligen tabiatiga ega ekanligini va yirik ko'sakli ota-ona shakllarining ustunligida namoyon bo'lishini ko'rsatgan.

B.A.Sirojiddinov [2; 146-148-b.] keltirgan ma'lumotlarida, *G.arboreum L.* turining turichi xilma-xilliklarini Avstraliya yovvoyi turlari bilan turlararo duragaylash asosida olingan F1 duragay kombinatsiyalarida 1000 dona chigit vazni belgisini irsiylanishi tahliliga ko'ra, *G.arboreum L.* turining ssp. *nanking* kenja turning novvotrang tolali shaklini onalik sifatida *G.nelsonii* yovvoyi turi bilan duragaylash natijasida olingan duragay kombinatsiyasida 1000 dona chigit vazni belgisi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 87,0 g ni tashkil etganligi kuzatilgan. Shuningdek o'rganilgan duragay kombinatsiyalarida belgi bo'yicha ijobiy, salbiy geterozis holatida irsiylanishi aniqlangan.

S.G'.Boboev, G'.A.Muratov, Sh.E.Namazov, A.Muratovlar [3; 55-58-b.] tadqiqotlari davomida yangi ko'p genomli murakkab turlararo duragaylarning yuqori avlodlaridan ajratib olingan barcha tizmalarning tola sifat ko'rsatkichlari andoza S-6524 navi ko'rsatkichlaridan ijobiy ekanligi va bugungi kunda ishlab chiqarishda paxta tolası sifatiga qo'yilgan talablarga to'la javob berishi aniqlandi. Murakkab polikomponentli

turlararo duragaylash uslublarini qo'llash orqali genetik jihatdan boyitilgan, ya'ni boshqa xo'jalik belgilari qatori tola sifat ko'rsatkichlari ijobiy bo'lgan yangi introgressiv tizmalar yaratishdagi ahamiyatini yaxshiligini isbotlaganlar.

Nihol unib chiqishidan 50 % gullashgacha bo'lgan davr ko'rsatkichi yaratilgan oilalarda andoza S-6524 (59,0 kun) navi darajasida yoki undan undan 1 kunga erta gullaganini guvohi bo'ldik (T-818-814, T-506-510). Nihol unib chiqishidan ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davr ko'rsatkichi bo'yicha andoza S-6524 navi 110 kunda ochilganligi, T-379-392 oilasi andoza nav darajasi pishishi qayd etildi. Boshqa yaratilgan oilalar andoza navdan 1 (O-879-891)-3 (O-818-824, O-506-510) kungacha tezpisharlikni namoyon etdi.

Hosildorlikning asosiy elementlaridan bir dona ko'sak vazni bo'yicha keltirilgan oilalarning ko'rsatkichi 6,8 g dan 7 g gachani tashkil etdi, bu esa andoza (6,5 g) navdan 0,3 (O-265-279) - 1,2 (O-506-510) g ustunlikni namoyon qildi.

1000 dona chigit vazni bo'yicha yaratilgan oilalarning ko'rsatkichlari 128 g (O-1133-1136) dan 131 g gachani tashkil etib, O-506-510 tizmasida belgi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich namoyon bo'ldi.

Tola chiqimi ko'rsatkichi esa andoza S-6524 navida 36,9 % ni tashkil etib, yaratilgan oilalar orasida O-1014-1017 tizmasida 40 % gacha tola chiqimi qayd etilib, andoza navdan 3,1 % ustunlik namoyon qildi. Qolgan oilalar andoza navdan tegishli ravishda 1,1 (O-379-392)% - 2,9 (O-818-824, O-1133-1136) % gacha ustun bo'lganligi qayd etildi.

Asosiy qimmatli xo'jalik belgilaridan tola uzunligi bo'yicha yaratilgan oilalarning ko'rsatkichlari asosan 35 mm ni tashkil etdi. Andoza navda ushbu belgi bo'yicha ko'rsatkich 33,6 mm ni bo'lib, yaratilgan oilalardan 34,9 mm dan 36,9 mm gacha bo'lganligi qayd etildi. Bu esa andoza navidan belgi bo'yicha 1,3 mm-3,0 mm ustun oilalar yaratilganini ko'rsatadi.

Oilalarda morfo xujalik belgilar b'yiicha k'rsatkichlari,

No	Oilalar	"Unib chiqish - 50% gullash" kuni	Unib chiqish -50 % ko'saklar ochilish kuni	Bir dona ko'sakdagi paxta vazni, g	1000 dona chigit vazni, g	Tola chiqimi, %	Tola uzunligi, mm	Vertisilloyoz viltga bilan zararlanish darajasi, %
1	O-2019	59,0	109,0	6,8	130	42,0	36,3	2,0
2	O-379-392	59,0	110,0	6,9	128	38,0	35,0	2,0
3	O-818-824	58.0	107,0	7,1	130	39,8	35,3	2,3
4	O-1014-1017	59.0	108,0	7,0	130	40,0	35,9	2,5
5	O-1133-1136	59,0	109,0	7,0	128	39,8	35,5	2,1
6	O-506-510	58.0	107,0	6,8	131	39,5	34,9	2,3

7	O-876-891	59.0	109,0	7,0	130	39,1	36,9	2,5
8	O-265-279	59.0	110,0	7,7	129	38,5	35,8	2,0
	C-6524 (St)	59,0	110,0	6,5	122	36,9	33,6	15,1
$\Sigma K\Phi_{0,5} =$			2,0	2,2	2,0	1,5	1,3	1,5

Vertisilloyoz viltga bardoshlilik darajasi shuni ko'rsatadiki, yartilgan oilalarda zararlanish darajasi 2,0 (O-379-392)-2,5 (O-1014-1017, T-876-891) % ni tashkil etadi. Andoza navda esa ushbu ko'rsatgich 15% ga teng bo'ldi. Demak Yaratilgan oilalar vertisellyoz vilt bilan andoza navdan 12,5-13 % kam zararlangan, yani bardoshlilikni namoyon etganligini ta'kidlab o'tish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sirojiddinov B.A. G.arboreum L. va Avstraliya g'o'za turlarining turlararo F1 duragaylarda 1000 dona chigit vazni belgisining irsiylanishi // "Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari" nomli Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy materiallari to'plami. – Toshkent, 2015. – B. 146-148.

2. Yangibaev A.A., J.X.Axmedov. Suv tanqisligiga bardoshli duragaylarni yaratishda gossipium barbadenze turiga mansub g'o'za navlaridan foydalanish // 72 "Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari" nomli Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy materiallari to'plami. – Toshkent, 2015. – B. 541-543.

3. Boboev S.G', Muratov G'.A., Namazov Sh.E., Muratov A. G'o'zaning yangi ko'p genomli murakkab turlararo duragaylarining yuqori avlodlaridan ajratib olingan tizmalarda tola sifatining qiyosiy tahlili // "Dala ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va agrotexnologiyalarining dolzarb yo'nalishlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-Toshkent, 2016. – B. 55-58.